

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UMARJONOV SOXIBJON SOYIBJON O‘G‘LI

**FAXRIDDIN MUHAMMAD AR-ROZIYNING IJTIMOYIY-FALSAFIY
QARASHLARI (“LATOIF UL-G‘IYOSIYOT” ASARI ASOSIDA)**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences

Umarjonov Soxibjon Soyibjon o‘g‘li

Faxriddin Muhammad ar-Roziyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari (“Latoif ul-G‘iyosiyot” asari asosida).....3

Умаржонов Сохибжон Сойибжон угли

Социально-философские взгляды Фахриддина Мухаммада ар-Рази (на материале произведения «Латоиф ул-Гиясият»).....25

Umarjonov Soxibjon Soyibjon ogli

The socio-philosophical views of Faxriddin Muhammad ar-Razi (based on the work “Latoif ul-Ghiyosiyat”).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UMARJONOV SOXIBJON SOYIBJON O‘G‘LI

**FAXRIDDIN MUHAMMAD AR-ROZIYNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
QARASHLARI (“LATOIF UL-G‘IYOSIYOT” QO‘LYOZMASI ASOSIDA)**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Fal630 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ik-falsafa@nuu.uz va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich falsafa fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xolmo'minov Ja'far Mumammadiyevich falsafa fanlari doktori, dotsent Rahmonov Sunnatillo Mavlonovich falsafa fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 9-oktyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Yoshlar Ittifoqi madaniyat saroyi. Tel.: 246-02-24 faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "___" oktyabr kuni tarqatildi
(2025-yil "___" oktyabr ___ -raqamli reyestr bayonnomasi).

O'.G'.Tilavov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b., falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa doktori (PhD), dotsent

O'.G'.Tilavov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. So‘ngi yillarda jahonda globallashtirish kuchayib borayotgan bir vaqtda millatlararo hamjihatlik, o‘zaro hamkorlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyillarini o‘zida mujassamlashtiruvchi g‘oyalarni tatbiq qilish zarurati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu xavf-xatarlarni bartaraf qilish yo‘lida har bir shaxsning butun insoniyat oldidagi mas‘uliyatini chuqur his qilishi va bunda diniy qadriyatlar hamda aql va bilimning mutanosibligiga erishishi ushbu muammoni bartaraf etishda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatmoqda. Shu bois, dunyo mutafakkirlari asarlaridagi ilmiy-ma‘rifat bilan zamonaviy bilimlarni uyg‘unlashtirish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligi obyektiv zaruriyat sifatida etirof etilmoqda.

Jahon falsafiy tafakkuri taraqqiyotida Sharq mutafakkirlarining ma‘naviy merosi, xususan, Faxriddin Roziyning diniy-falsafiy qarashlari Eron, Tojikiston, Pokiston, Turkiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi davlatlarning ilmiy tadqiqot markazlari va yetakchi universitetlarida ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilmoqda. Uning olamni anglash, ratsional tafakkur, ilmga intilish, axloqiy kamolotga oid ilg‘or g‘oyalari, aql va e‘tiqod munosabatiga oid qarashlari, jamiyat barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, ma‘naviy hayotda yuzaga kelayotgan g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashda Faxriddin Roziyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bugungi ilm-fanning zaruriy tadqiqot obyekti aylanmoqda.

Mamlakatimizda buyuk mutafakkirlar ma‘naviy merosini o‘rganish va ularning ilg‘or g‘oyalari jamiyat hayotiga targ‘ib qilish muhim vazifaga aylandi. Xususan, 2024-yil 17-18 oktyabr kunlari Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida Turkiya, Qatar, Misr, BAA, Hindiston, Qirg‘iziston kabi davlatlardan tashrif buyurgan 50 dan ortiq taniqli olimlar ishtirokida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bu boradagi ishlarimizning amaliy e‘tirofi bo‘ldi. Jumladan, «Markaziy Osiyo Sharq uyg‘onish davri ko‘plab yorqin namoyondalarining islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasi»¹ yosh avlodning ma‘naviy qiyofasini yuksaltirishda hamda ta‘lim-tarbiyasi shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Faxriddin Roziy asarlarining mazmun-mohiyatini ilmiy nuqtai nazardan yoritish ekanligini ta‘kidlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risida»gi farmoni, 2017 yil 27 martdagi PQ-2855-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-sonli «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –Б. 253.

tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 10 fevraldagi PQ-126-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda mavzuga doir boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Faxriddin Roziyning ijtimoiy, diniy-falsafiy dunyoqarashining konseptual asoslarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, avvalo, uning asarlariga, o'sha davr tarixiy xujjatlariga, safdoshlari, shogirtlari va raqiblari xotiralariga, shuningdek, mavzu doirasiga tegishli ilmiy tadqiqotlarga tayanilgan holda olib borildi.

Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni 5 ta guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Faxriddin Roziyning arab, fors tilidagi qo'lyozma va toshbosma asarlar² muhim manba hisoblanadi. Bu asarlarda Faxriddin Roziyning dunyoqarashi, uning falsafiy, teologik, ijtimoiy-siyosiy, mantiqiy va axloqiy qarashlari aks etgan.

Ikkinchi guruh tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan voqeotlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Faxriddin Roziyning hayoti, ilmiy faoliyati, sayohatlari va G'uriy sultonlar homiyligi davridagi ilmiy hamda ijtimoiy mavqeiga oid manbalar asosan Ibn al-Asir, Ibn Xallikan, Juzjoniy, Ibn al-Qiftiy, Tajiddin ibn al-Sai, Kamoliddin ibn al-Sha'ar, Ibn Abi Usaybiya, Yaqut al-Hamaviy, Muhammad Mirhand, E.Altash, F.Griffel kabi tarixchilarning asarlarida ma'lumot berib o'tilgan³.

² Muhammad ibn Umar Fahriddin ar-Roziy. Latoif ul-G'iyosiyya. الرسالة الكاملة في // جامع العلوم. طشقند 1331 هجرية. -490 ص // O'zFA Sharqshunoslik instituti, Inv: 10873 // 215 ص -هجريّة. طهران 1335 هجرية. // (Ar-Risolat ul-kamoliya) // 185 -هجري قمرى. -1340 هجران، تهران، ريسولا. چاخوردخ ريسولا. صفحه (Chahordoh risola).

³ شمس الدين ابن (Ibn al-Athir. Al-Kamil fi l-tarikh.); عز الدين بن الأثير. الكامل في التاريخ. 14 مجلد. - ليدن: بريل، 1851-1876 1968 منهاج الدين الجوزجاني. طبقات (Ibn Khallikan. Wafayat al-ayan). خلكان. وفيات الأعيان. 8 مجلدات. بيروت: دار صادر، 1963 (Minhojiddin Juzjoniy. Tabaqat-i Nasiri); Leipzig: Dieterich'sche Verlagsbuchhandlung, 1903. -518. تاريخ الحكماء. علي بن يوسف بن القفطي. (Ibn al-Qiftiy. Tarix ul-hukama); 1934 (Tajiddin Ibn al-Sai. Al-Jami al-mukhtasar); 2005 (Kamoliddin Ibn al-Sha'ar. Qala'id al-juman); 9 مجلدات. بغداد: المطبعة السريانية الكاثوليكية، 1934 (Ibn al-Qasim Ibn Abi Usaybia. Uyun al-anba fi tabaqat al-atibba. In A Literary History of Medicine, eds. E. Savage-Smith et al. vol. 5. -Leiden: Brill, 2020; 1993 (Yaqut al-Hamawi. Mu'jam al-udaba); 1994 (Muhammad Mirhand. Rawdat al-safo); Eşref Altaş. Fahreddin er- Razi'nin Hayati, Hämileri: İlmî ve Siyasî İlişkileri. -Istanbul: İSAM Yayınları, 2013. -S. 41- 90; Frank Griffel. «On Fakhr al- Dîn al- Râzî's Life and the Patronage He Received» *Journal of Islamic Studies* 18, 2007. - p. 313- 344.

Uchinchi guruhga kiritilgan adabiyotlarni quyidagi tartibda tasniflash mumkin: xorijlik taniqli olimlardan F.Griffel, M.Sag'ir Hasan Ma'sumi, Manuchehr Sadoqi tadqiqotlarida Faxriddin Roziy dunyoqarashining shakllanishi⁴, A.Shihadeh, M.Rapoport, R. Visnovskiy, J.Lamer, D.Gutas, A.Ahmed, Van Lit asarlarida Ibn Sinoning «Ishoralar va tanbehlar» asariga Roziyning sharhlari, sharx an'analari, sharxlash uslubi⁵, Tariq Jaffer, A.Shihadeh, B. Ibrohim Yacin Ceylan, Mehmed Emin Yurt, Veysel Kaya, Is'hoq Husayni Kuhshoriy Faxriddin Roziyning Qur'onga yozgan tafsiri, kalom ilmi⁶, Mustafa Bozkurt⁷ bilish nazariyasi, Moil Xeraviy, E.Altash, F.Griffel asarlari haqida⁸, M. Noble⁹ sehrgarlikka munosabati, A. Shihadeh¹⁰ etikasini, Muhammad Abu Sharea¹¹ Faxriddin Roziyning diniy dunyoqarashida Xristianlikka munosabati, P.Adamson, F.Benevich Roziy falsafasining ontologik jihatlarini tadqiq qilganlar¹².

⁴ Griffel F. The Formation of Post-Classical philosophy in Islam. -New York: Oxford University Press, 2021. –651 p; Saghir Hasan Masumi. Imam Razi's Ilm al-akhlaq. -New Delhi: Kitab Bhavat, 1992. – 333 p. منوچهر صدوقی. حکمت: تهران، ۲۰۰۲ تاریخ حکما و عرفای متأخر.

⁵ Shihadeh A. Fakhr al-Dīn al-Rāzī's Response to Sharaf al-Dīn al-Mas'ūdī's Critical Commentary on Avicenna's Isharat // The Muslim world 104, 2014. – 1-60 p.; Al-Rāzī's (d. 1210) Commentary on Avicenna's Pointers: The Confluence of Exegesis and Aporetics. -New York: Oxford University Press, 2016. – 296-326 p.; From al-Ghazali to al-Rāzī: 6th/12th Century Developments in Muslim Philosophical Theology // Arabic Sciences and Philosophy 15, 2005. – 141–179 p; Rapoport A.M. The Life and Afterlife of the Rational Soul: Chapters VIII-X of Ibn Sina's Pointers and Reminders and Their Commentaries: Doctor of philosophy. ...diss. - Yale University, 2018. –500 p; Wisnovsky R. Avicennism and Exegetical Practice in the Early Commentaries on the Isharat // Oriens 41(3-4), 2013. – 349-378 p.; Avicenna's Islamic Reception. -Cambridge: Cambridge University Press, 2013. – 190-214 p; Lameer J. Towards a New Edition of Avicenna's Kitab al-isharat wa-l-tanbihat // Journal of Islamic Manuscripts 4(2), 2013. – 199-248 p; Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works. Second, Revised, and Enlarged Edition, Including an Inventory of Avicenna's Authentic Works. -Boston: Brill, 2014.-617 p; Ahmed A.Q. Post-Classical Philosophical Commentaries/Glosses: Innovation in the Margins // Oriens 41(3-4), 2013. –317-348 p; Lit L. W. C. (Eric). Commentary and Commentary Tradition // MIDEO 32, 2017. – 3-26 p.

⁶ Jaffer T. Razi Master of Qur'anic Interpretation and Theological Reasoning. -New York: Oxford University Press, 2015. – 244 p; Shihadeh A. Mereology in *Kalām*: A New Reading of the Proof from Accidents for Creation // *Oriens*, 48(1-2), 2020. 5-39 p.; Al-Rāzī's Earliest *Kalām* Work: Eastern Ash'arism in the Twelfth Century. Brill, 2020. 36-70 p; Ibrahim B. Beyond Atoms and Accidents: Fakhr al-Dīn al-Rāzī and the New Ontology of Postclassical *Kalām* // *Oriens* 48(1-2), 2020. 67-122 p.; Reason and Revelation in Fakhr al-Dīn al-Rāzī and the Ash'arī Tradition. –Berlin: De Gruyter, 2021. 129-82 p.; Causing an Essence. Notes on the Concept of *Ja' l al-māhiyya*, from Fakhr al-Dīn al-Rāzī to Mullā Sadrā. –Brill: Leiden, 2020. 156-194 p; Ceylan Y. Theological and Tafsir in the major works of Fakhr al-Dīn al-Rāzī. Thesis presented for the degree of Ph.D. in the Faculty of Arts, University of Edinburg, 1980. – 264 p; Mehmed Emin Yurt. Fahrūddīn er-Rāzī'nin tefsiri'nde i'cāzu'l-Kur'ān. Doktora tezi, T.C. Dicle Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, Diyarbakır 2016. – 339 s; Kaya V. Fahrūddīn Rāzī'nin Mātūridīlerle olan tartisimalari ve elestirisi. Yüksek lisans tezi, Uludag üniversitesi Sosyal bilimler enstitüsü, Bursa 2007. – 96 s. // اسحاق حسینی کوهساری. تاریخ فلسفه اسلامی. ج. تهران: امیر کبیر، ۱۳۸۲. - ص ۱۶۰

⁷ Mustafa B. Fahrūddīn Rāzī'de bilgi teorisi. Doktora tezi, T.C. Ankara üniversitesi, -Ankara, 2006. – 208 s.

⁸ Moyil Xeraviy. Fahriddin Roziyning hayoti va munozaralari; Eşref Altaş. Fahrūddīn er-Rāzī'nin eserlerinin kronolojisi. -Istanbul: İSAM Yayınları, 2013. 91– 164 s; Griffel F. Fahrūddīn ar-Rāzī. In 11. und 12. Jahrhundert: Zentrale und Östliche gebiete, herausgegeben von U. Rudolph, Schwabe verlag, 2021. 471-501 b.

⁹ Noble M. Philosophising the Occult: Avicennan Psychology and «The Hidden Secret» of Fakhr al-Dīn al-Rāzī. -Berlin, Boston: De Gruyter, 2021. – 309 p.

¹⁰ Shihadeh A. The Teleological ethics of Fahr al-Din al-Razi. –Boston: Brill, Leiden, 2006. – 275 p.

¹¹ Muhammad Abu Sharea. The Impact of Fakhr al-Dīn al-Rāzī's Intellectual Project on his Views on Christianity. Sub. for the Degree of the Doct. in Systematic Theology. –Edinburgh: The University of Edinburgh, 2022. – 214 p.

¹² Adamson P. Avicenna and his Commentators on Self-Intellective Substances. -Berlin: de Gruyter, 2011. 97-122 p.; Fakhr Al-Dīn al-Rāzī on Place // *Arabic Sciences and Philosophy* 27(2), 2017. 205–236 p.; Fakhr al-Dīn al-Rāzī

To‘rtinchi guruhga MDH davlatlari taniqli olimlari M.N. Boltaev, N.A.Kulmatov, S.N.Grigoryan, S. Pirov asarlarida Faxriddin Roziy falsafasining mantiqiy, gnoseologik va axloqiy-tarbiyaviy jihatlari¹³, A.Korben, I.P.Petrushevskiy, B.Elchibekova ilohiyot, diniy falsafiy dunyoqarashlarini tadqiq etganlar¹⁴.

Beshinchi guruhga o‘zbekistonlik faylasuflar, shuningdek, sharqshunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini kiritish mumkin. O‘zbek sharqshunos olimlaridan N.Naimov, I.D.Fayzixo‘jaeva, X.V. Muksimova Roziyning falsafiy va mantiqiy qarashlarini tahlil etganlar¹⁵. M.Qodirov, B.To‘rayev, J.Xolmo‘minov¹⁶ kabi sharqshunos olimlarimizning ilmiy ishlarida mavzuga aloqador masalalarni ilmiy-nazariy tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Ammo yuqorida keltirilgan Faxriddin Roziy bilan bog‘liq tadqiqotlarning maqsadi aynan «Latoif ul-G‘iyosiyot» asaridagi mutafakkirning diniy-falsafiy qarashlarini tahlil qilish bo‘lmagan. Faqatgina F.Griffelning tadqiqotida «Latoif ul-G‘iyosiyot» qo‘lyozmasining bibliografik ma‘lumotlari¹⁷, A.Shihadehda esa Faxriddin Roziy «1199-1202 yillar oralig‘ida fors tilida «Latoif ul-G‘iyosiyot» nomli kichik bir kitob yozganligi va bu asar Qur‘on tafsiriga doir «Asrar al-tanzil va-anvar al-ta‘vil» asarining so‘ngi qismiga asoslangan holda yozilganligi, u oxirgi asar bilan tuzilishi jihatidan bir-biriga mos kelishi, lekin unda keltirilgan Qur‘on dalillarining ko‘pchiligi e‘tibordan chetda qoldirganligi»¹⁸ haqida qisqa ma‘lumot berib o‘tadi.

Zikr etilgan ilmiy izlanishlarning tahlili Faxriddin Roziy hayoti va ijodiga doir masalalarni o‘rganishda Sharq va G‘arb sharqshunoslari bir qatoq ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganliklarini, biroq mutafakkirning «Latoif ul-G‘iyosiyot» asari hamda undagi ilm fazilati, aql va e‘tiqod kabi ijtimoiy, diniy-

on Void. -Bonn: Bonn University Press, 2018. 307–324 p.; The Existence of Time in Fakhr Al-Dīn al-Rāzī’s *Maṭālib al-‘āliya*. -Boston: De Gruyter, 2018. 65–99 p; Benevich F. The Necessary Existent (*wājib al-wujūd*): From Avicenna to Fakhr al-Dīn al-Rāzī. –Brill, 2020. 123-155 p.

¹³ Болтаев М.Н. Рационалистическая теория познания Фахриддин Рази. – Душанбе: Ирфон, 1965. –98 с.; Вопросы гносеологии и логики в произведениях Ибн-Сины и его школы. – Душанбе: Ирфон, 1965. –600 с; Кулматов Н.А. Фахриддин Розы. (Краткий анализ философской концепции). –Душанбе: Дониш, 1980. –66 с; Григорян С. Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII – XII вв. "-М.:" Изд во Акад. Наук СССР, 1960. –300 с; Пиров С. Фахруддини Розӣ ва андешаҳои ахлоқиву тарбиявии ӯ. –Душанбе: Аржанг, 2015.–196с.

¹⁴ Корбен А. История исламской философии. "-М.:" Прогресс-Традиция. 2010. –360 с; Petrushevsky I.P. Islam in Iran. – State University of New York Press Albany, 1985. – 402 p.; Элчибекова Б. Масъалаи инсон дар таълимоти Фахриддини Розӣ. / Автореф. дисс. номз. илмҳои фалсафа. – Душанбе, 2024.

¹⁵ Наимов Н. Философские и логические воззрения Фахриддин Розы: Автореф. Дис. ... канд. фил. наук - Тошкент, 1971. –30 с; Файзиходжаева Д.И. IX-XI асрларда Марказий Осиё мутафаккирларининг мантиққа оид қарашларида исботлаш муаммоси. Фал. фан. ном. дисс. – Тошкент: УзФА, 1999. –157 б; Муксимова Х.В. Аристотел «Аналитиклар» ва IX-XV асрлар Марказий Осиё мутафаккирларининг ҳулоса чиқариш ҳақидаги таълимотларининг ривожини (Тарихий–фалсафий таҳлил). Фал. фан. ном. дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2003.

¹⁶ Қодиров М. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури (ўрта асрлар). Тошкент: ТДШИ, 2010. - 212 б; Тураев Б.О. Борлиқ (фалсафий таҳлил). -Самарқанд-Тошкент: 2022. –234 б; Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг нақшбандия таълимотиға таъсири. – Тошкент: 2021. – 244 б.

¹⁷ Griffel F. Fahraddīn ar-Rāzī. In 11. und 12. Jahrhundert: Zentrale und Östliche gebiete, herausgegeben von U. Rudolph, Schwabe verlag, 2021. –475 b.

¹⁸ Shihadeh A. Fakhr al-Din al-Razi and Ghurid self-fashioning // Afghanistan, 5.2. 2022, -P. 273.

falsafiy qarashlari yaxlit va keng qamrovli ilmiy-falsafiy tadqiqotlar olib borilmaganligini ko'rsatmoqda.

Bu esa o'z navbatida mutafakkirning «Latoif ul-G'iyosiyot» asari nafaqat yurtimizda, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari olimlari tomonidan ham kompleks tadqiq etilmaganligidan dalolat beradi. Demak, dissertatsiya mavzusi doirasidagi muommo ilk bor yaxlit tadqiq etilishi bilan ahamiyatlidir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «O'zbekistonning jadal rivojlanish sharoitida yoshlarning tolerantlik dunyoqarashini shakllantirish» mavzuidagi PZ – 20170929280 raqamli amaliy ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Faxriddin Roziyning «Latoif ul-G'iyosiyot» asari va undagi itimoiy, diniy-falsafiy qarashlarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Faxriddin Roziy yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy muhitni o'rganish hamda bu davr nuqtai nazaridan diniy va dunyoviy bilimlarning falsafa va ilohiyot an'analari shakllanishiga ko'rsatgan ta'sirini ochib berish;

tarixiy-falsafiy kontekstda «Latoif ul-G'iyosiyot» asari asosida Faxriddin Roziy qarashlaridagi din yoki e'tiqod va falsafa yoki aql mutanosibligining ontologik va epistemologik jihatlarini germenevtik tahlil asosida ochib berish;

hozirgi davrda Faxriddin Roziyning ilmiy-falsafiy dunyoqarashida din va falsafa, aql va e'tiqod uyg'unligi g'oyasining ma'naviy-ma'riviy, madaniy sohalarida ahamiyatini, hamda bugungi yosh avlodni diniy va dunyoviy bilimlar aloqadorligida tarbiyalashda konseptual asos ekanligini ochib berish;

«Latoif ul-G'iyosiyot» ning tahlili asosida nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularni hayotga tatbiq etish yuzasidan takliflar berish.

Tadqiqot obyektini Faxriddin Roziyning ijtimoiy-falsafiy merosi tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti Faxriddin Roziyning «Latoif ul-G'iyosiyot» asaridagi diniy-falsafiy masalarning mohiyatini tizimli tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida umumiy o'zaro aloqadorlik, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, analiz, va qiyosiy tahlil, ilmiy ob'yektivlik, fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

«Latoif ul-G'iyosiyot» asaridagi «Ilm fazilati haqida», Inson ahvolining sifatlari haqida, maqolotlaridagi kalom, din va falsafa uyg'unligi bilan bog'liq madaniy konstruksiyaning structural-funksional, lokal-global talqinlarini yaxlit tarzda ifodalash natijasida inson jasadi (tana) va ruhining amali bo'lgan toat-ibodat, e'tiqod, imon hamda aql, tafakkurning mutanosibligi tadqiq qilingan.

Faxriddin Roziyning kalom falsafasida din va falsafaning bir-birini inkor etuvchi emas aksincha, bir birini to'ldiruvchi tushunchalar ekanligi, ikkisi ham haqiqatni topish jarayonidagi harakatlari doirasida yagona maqsad yo'lida ekanligi,

teologik ta'limotlarda ilgari surilgan yaratuvchi Alloh haqiqatini aql va mantiqqa tayanib bilish mumkinligi, aql va e'tiqod, ruh va tana tushunchalarining o'zaro munozabati, ijtimoiy qadriyatlar (bilim, ko'nikma, me'yor) tizimida konsyumer (axborotni qabul qilish), umumiy va o'ziga xos jihatlari diniy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etilganligi, Roziyning falsafasi islom dunyosida ratsional ilohiyot va tanqidiy fikrlash, axloqni mantiq va diniy manbalar bilan uyg'unlashtirish fenomenini yuksaltiruvchi atribut ekanligi asoslab berilgan.

Mutafakkirning «Latoif ul-G'iyosiyot» asarida Qur'on, Tavrot, Zabur kabi muqaddas bitiklaridan bevosita foydalangan holda ilm fazilati, ilm kasb etishning xususiyatlari, e'tiqod va hikmat, aql va e'tiqodning uzviy aloqadorligi, insonning yakuniy maqsadi — Allohga yaqinlik (“ma'rifatulloh”) orqali ruhiy kamolotga erishish, ilm olish, adolatli yashash va aql-idrokni rivojlantirishni kabilarning germenevtik tahlilidagi ratsional pozitsiyasi ochib berilgan.

Faxriddin Roziyning «Ilm fazilati haqida», «Borliqning va olamning yaratuvchisi borligi dalillari to'g'risida», «Inson ahvolining sifatleri haqida» maqolotlarida aql va e'tiqod, ruh va tananing o'zaro dialektik aloqadorligini ta'minlab, inson salohiyatini ratsional, irratsional, ontologik bilish qobiliyatlarini belgilovchi ijtimoiy-sotsial mexanizm ekanligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Faxriddin Roziyning progressive g'oyalari keng jamoatchilik tafakkurida konstruktiv holatni yuzaga keltirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlar ishlab chiqilgan;

Faxriddin Roziyning «Latoif ul-G'iyosiyot» asarida bugungi globallashuv sharaotida diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligidagi me'yorlar buzilishining oldini olish yo'llari asoslangan;

«Latoif ul-G'iyosiyot» asaridagi jamiyat barqarorligi va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi konstruktiv qarashlarni jamiyat hayotiga yo'naltirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan mazariy qarashlar, yondashuv uslublari, ilmiy ma'lumotlarning birlamchi manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi ilmiy jurnallarda hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Faxriddin Roziyning diniy-falsafiy merosiga doir ilmiy-nazariy xulosalardan, taklif va tavsiyalardan O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasiga oid ilmiy faoliyatda foydalanish mumkin, bu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistratura bosqichlarida “Falsafa”, “Sharq falsafasi va madaniyati tarixi”, “Din falsafasi”, “Dinshunoslik”, “Sharq va G'arb falsafasida antropologik muammolar” kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ijtimoiy-siyosiy institutlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Xalqaro Islom sivilizatsiya markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkillashtirishda hamda mafkuraviy tahdidlarga qarshi sog‘lom aqidaviy immunitetni yuksaltirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Faxriddin Muhammad ar-Roziyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari («Latoif ul-G‘iyosiyot» asari asosida) mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida:

XII asrdan XIII asrning boshlarigacha bo‘lgan davrdagi Movorounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayot, O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida ilmiy doiraga ma’lum bo‘lmagan Faxriddin Roziyning yana bir arab, fors va tojik tillarida ko‘chirilgan qo‘lyozma asari – «Latoif ul-G‘iyosiyot» ikkita nusxada saqlanayotganligi, ushbu qo‘lyozma 3 ta katta maqolotdan (1. Ilm fazilati haqida; 2. Borliqning va olamning yaratuvchisi borligi dalillari to‘g‘risida; 3. Inson ahvolining sifatleri haqida) iborat ekanligiga borasidagi xulosa va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 2022 yil 4 iyundagi 06-39-750-son ma’lumotnomasi). Natijada, teletomoshabinlarning XII asrdan XIII asrning boshlarigacha bo‘lgan davrdagi Movorounnahr va Xurosondagi ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy hayot hamda Faxriddin Roziyning haligacha tadqiq etilmagan «Latoif ul-G‘iyosiyot» qo‘lyozma asariga doir ilmiy-tarixiy bilimlarini oshirishga xizmat qilgan.

«Latoif ul-G‘iyosiyot» asarining fors tilidan o‘zbek tiliga ilk tarjimasini orqali diniy va dunyoviy ilmda mo‘tadillikni targ‘ib qilgan Faxriddin Roziyning kalom va falsafaga doir ilg‘or va innovatsion g‘oyalari asosida yoshlarni zamonaviy ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashning yanada samarali vositalari tadqiq etilgani, shuningdek, Faxriddin ar-Roziyning kalom falsafasida din va falsafaning bir-birini inkor etuvchi emas aksincha, birbirini to‘ldiruvchi tushunchalar ekanligi, ikkisi ham haqiqatni topish jarayonidagi harakatlari doirasida yagona maqsad yo‘lida ekanligi, teologik ta’limotlarda ilgari surilgan yaratuvchi Alloh haqiqatini aql va mantiqqa tayanib bilish mumkinligi, aql va e’tiqod, ruh va tana tushunchalarining o‘zaro munosabati, umumiy va o‘ziga xos jihatlari diniy-falsafiy jihatdan tadqiq etilganligi, “Ilm fazilati” tushunchasi Qur‘on oyatlari va hadislar asosida qiyosiy tahlil qilinib, mohiyati ochib berilganligi, bu esa din va falsafaning o‘zaro uyg‘unligini taqazo etishi mumkinligi isbotlab berilishi yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “G‘oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma’rifat targ‘iboti” 16-bandida “Buyuk alloma va mutafakkirlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o‘rganish, boy ma’naviy va madaniy meroslarini asrab avaylash, ilmiy-ijodiy asarlarini keng targ‘ib qilish” mavzusida o‘tkazilgan targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiya

materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 7 iyuldagi 02-22/652-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda "Faxriddin Muhammad Ar-Roziyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari ("Latoif ul- G'iyosiyot" qo'lyozmasi asosida)" ni o'rganishga doir uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

«Latoif ul-G'iyosiyot» asaridagi "Ilm fazilati haqida", "Inson ahvolidning sifatlari haqida" maqolotlaridagi dalom, din va falsafa uyg'unligi bilan bog'liq madaniy konstruksiyaning struktural-funksional, lokal-global talqinlarini yaxlit tarzda ifodalash natijasida inson jasadi (tana) va ruhining amali bo'lgan toat-ibodat, e'tiqod, imon hamda aql, tafakkurning mutanosibligiga doir ilmiy xulosa va ma'lumotlardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan yillik rejaga muvofiq o'tkazilgan davra suhbatlari hamda targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda foydalanilib, ko'zlangan samarani berdi (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 29 avgustdagi 01-07/163 sonli dalolatnomasi).

Faxriddin ar-Roziyning «Latoif ul-G'iyosiyot» asarida "Qur'on", "Tavrot", "Zabur" kabi muqaddas bitiklaridan bevosita foydalangan holda ilm fazilati, ilm kasb etishning xususiyatlari, e'tiqod va hikmat, aql va e'tiqodning uzviy aloqadorligi sharhlarining germenevtik tahlilidagi ratsional pozitsiyasi mantiqiy asoslanganligiga oid ilmiy xulosalar va ma'lumotlardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr qilingan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi ensiklopediyasi" nomli asarni tayyorlashda hamda markaz tomonidan amalga oshirilgan davra suhbatlarini o'tkazishda, targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023 yil 14 sentabrdagi 02/435 sonli dalolatnomasi). Natijada, buyuk mutafakkir olimlarning ma'naviy merosini falsafiy, diniy jihatdan o'rganib tadqiq etishda va falsafiy g'oyalarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy amaliy anjumanlarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (7 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi "Kirish", uchta bob, sakkizta paragraph, "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" va "Ilovalar" dan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 163 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, metodlari asoslangan, ishning

ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Faxriddin Roziyning hayoti va ilmiy merosining nazariy metodologik asoslari”** deb nomlanib unda XII asrning ikkinchi yarmi – XIII asr boshlarida musulmon Sharqida tarixiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy hayot, Faxriddin Roziyning hayot yo'li, ma'naviy merosi va dunyoqarashining shakllanishi, “Latoif ul-G'iyosiyot” asarining metodologik asoslari ilmiy tahlil etilgan.

Dissertant ta'kidlashicha, Faxriddin Muhammad ar-Roziyning dunyoqarashi o'sha davr ruhiyati bilan boyitilgan edi. Faxriddin Roziyning ijodini tahlil qilib, uning diniy-falsafiy qarashlariga, nafaqat yunon falsafasi va sharq peripatetizmi, balki diniy aqidalar, ayniqsa, Ash'ariy ilohiyoti ulkan ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Xuroson va Movarounahr aholisi o'zining yozuviga ega bo'lib, bu yerda madaniyat va adabiyotni shiddat bilan rivojlanishiga turtki bo'lgan. Bu hududini olimlari va yozuvchilari bizga arab, fors va boshqa tillarda yozilgan katta ilmiy va badiiy asarlarni meros qoldirishgan. Tabiat, olamning paydo bo'lishi, yer yuzidagi hayotning boshlanishi haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar islomgacha bo'lgan davr afsonalarida uchraydi.

Dissertantning fikricha, Faxriddin Muhammad ar-Roziyning qarashlarida Ash'ariy ilohiyoti bilan birga, yunon olimlari va sharq tabiiyunchilarining ta'sirini ham ko'rish mumkin. Ibn al-Qiftiyning ta'kidlashicha Roziy Xurosonda, ya'ni Nishopurda ta'lim olish davomida Ibn Sino va Farobiy asarlari bilan tanishadi va o'zi uchun ularni kashf etadi. Ilmga chanqoq bo'lajak faylasuf ko'plab buyuk ustozlardan ta'lim oladi. Tarixchi Yoqut Xamaviy Hirotga tashrif buyurganda Faxriddin Roziyning o'g'illaridan biri bilan uchrashganini quyidagicha ta'riflaydi: “Faxriddinning o'g'li Ziyo al-Dindan “Otangiz kimdan ilm o'rgangan?” deb so'radim. U shunday javob berdi: Otamning Ozarbayjonga safar qilganidan boshqa mashhur ustozlari yo'q edi, u Majduddin Jiliy ismli kishi bo'lgan. Undan ta'lim oldi. Keyin Alloh taolo unga ko'p ilm berdi va u kitoblar yoza boshladi.”¹⁹ U yerda Roziy turli fan sohalarini o'zlashtirishga kirishadi. Ibn Xollikon esa Majduddin Jiliy bilan uzoq vaqt kalom va falsafa o'rganganligini ta'kidlaydi.

Ellinizm omili Faxriddin Roziyning diniy-falsafiy dunyoqarashini shakllanishida yetarlicha muhim ahamiyat kasb etdi. U umri davomida ko'plab sayohatlar uyushtirdi va bir nechta hukmdor sulolalarning saroylarida ijod qildi. F. Griffelning tadqiqotlariga ko'ra mutafakkirning hayoti va ijodini 3 ta davrga bo'lish mumkin. Birinchi davrida Xorazmshohlar saroyida ilmiy ijod bilan shug'ullangan va falsafa, mantiq, ilmlar tasnifi, ahloqshunoslik sehrgarlik kabi fan tarmoqlariga doir ko'plab asarlar yozdi. Ikkinchi davr Xorazmshohlarning ashaddiy raqibi bo'lgan G'uriy hukmdorlar saroyidagi o'n yillik (tahminan 1195-1206 yillar) davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda Roziy asosan Qur'on tafsiri, fiqh,

¹⁹ 92-2591. ص. 1993. دار الغرب الإسلامي، بيروت. مجلدات. بيروت. تحرير احسان عباس. 6. معجم الأدباء، تحرير احسان عباس. (Yaqut al-Hamawi. Mu'jam al-udaba)

ilohiyot kabi sohalarga doir asarlar yozgan. G'uriy hukmdorlarning (G'iyosiddin Muhammad, Bahouddin Muhammad) mag'lubiyati va vafotidan keyin Roziy yana qaytadan Muhammad Xorazmshoh xizmatiga kiradi va bu allomaning vafotigacha davom etadi. Bu esa mutafakkir hayoti va ijodining uchinchi davrini tashkil etadi. Bu davrda Roziy bir qancha falsafiy asarlar, xususan Ibn Sinoning "Ishoralar va tanbehlar" asariga sharhlar yozgan.

Alloma asosan Nishopurda 1183-1197 yillarda noiblik qilgan Xorazmshoh Takashning o'g'li Nosiriddin Malikshoh (v.1197) homiyligida bo'lgan. Tahminan Nosiriddin Malikshoh vafot etgandan so'ng (1197), Roziy Xorazmshohlar saltanatini tark etadi va ularning ashaddiy raqibi – G'uriy sultonlari dargohiga boradi. Bu uning hayoti va ilmiy faoliyatining G'uriylar homiyligidagi ikkinchi davrining boshlanishini anglatadi. "Bu davr tahminan o'n yil davom etadi (tahminan 1195-1206 yillar)." Roziy hayoti va ilmiy ijodidagi bu davrni shartli ravishda A. Shihadeh "G'uriy intermediyasi" deb nomlaydi.

Faxriddin Roziy Islom tarixida eng sermahsul mutafakkirlardan biri hisoblanadi. Uning asarlari juda ko'p va uning ma'naviy merosi turli fan sohalariga tegishli. Jumladan, mutafakkir sayohatlarga boy ilmiy faoliyati davomida falsafa, ilohiyot, tafsir, tibbiyot, tilshunoslik, fizika, astronomiya, tarix, astrologiya, bid'atshunoslik va fiziognomiya kabi fan sohalarida ijod qilgan. Biograflarning habar berishicha Roziy 200 dan ortiq asarlar yozgan ammo odatda ular eng muhim va eng keng tarqalgan asar nomlarini keltirishadi. Taniqli roziyshunos M. Zarkan o'zining "Fakhr al-Din al-Razi wa Ara'uh al-Kalamiyya wa l-Falsafiyya" asarida Roziyning turli xil sohalarga doir 193 ta asarini keltiradi ammo ulardan faqat 93 tasi Roziy tomonidan yozilganligini isbotlash mumkin degan xulosaga keladi. Qolganlari yo baxsli yoki noto'g'ri nisbat berilgan asarlardir. Bunday xulosaga kelishida M. Zarkan o'zidan oldingilarning so'rovlaridan foydalanish afzalligi bilan birgalikda qimmatli usullardan ham foydalangan. O'z faoliyati davomida Faxriddin Roziy ko'plab sohalarda asarlar yaratgan. Eronlik olimlardan biri, Roziyning ko'plab asarlarini nashrga tayyorlagan Said Muhammad Boqar Sabzavoriy mutafakkirning 70 ga yaqin asari mavjudligini ta'kidlab o'tgan. Yana boshqa bir afg'onistonlik olim Moil Xeraviy esa Faxriddin Roziyni 46 ga yaqin asari borligini ta'kidlaydi. Yel universiteti professori F. Griffel 2021-yilda e'lon qilgan tadqiqotida Faxriddin Roziyning turli xil fan sohalariga doir nashr qilingan va asosan Eron, Misr, Turkiya kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma asarlarining bibliografik ma'lumotlarini berib o'tadi.

Markaziy osiyolik olim-u mutafakkirlar ma'naviy merosi bugungi dunyo ilmiy jamoatchiligi e'tirof etayotgan asosiy ijtimoiy voqeliklardan biridir. Mutafakkirlarning ilm-fan va islomiy bilimlar taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi jamiyat ma'naviy yuksalishida ta'sirchan vositaga aylandi. "Ma'lumki qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olim-u ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz avliyolar

yetishib chiqqan”²⁰. Markaziy osiyolik mutafakkirlar o‘z asarlarida insonlarning ilmga intilishi, uning qadrini anglashi va bilishi orqali komillikka erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlarni ob’ektiv zaruriyat sifatida baholaganlar. Bunday chuqur ilmiy-nazariy mulohazalarga asoslangan qoidalar hamda mezonlar islom falsafasining ma’rifiy tamoyillarini tushunish va o‘rganishning muhim sharti hisoblangan.

Globalashuv sharoitida destruktiv g‘oyalar ta’siri ostida asl mazmun-mohiyati murakkablashib borayotgan aql va e’tiqod, din va falsafa kabi bir qator mavzulardagi tushunchalarni Faxriddin Roziyning «Latoif ul-G‘iyosiyot» asari orqali yoritib berish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Jamiyat ma’naviy taraqqiyotida yetakchi rol o‘ynagan, qolaversa, karromiylik ta’limotiga qarshi kurashga doir asosiy manbalaridan hisoblangan ushbu asar ma’rifiy islomni tadqiq qilishda muhim qo‘llanma hisoblanadi.

Faxriddin Roziy XII-XIII asrlarda yashagan zamondoshlari kabi falsafada eklektik bo‘lib, arab tiliga aralash tarjima qilingan antik davr yunon ilm-fanining boy falsafiy fikrlar taraqqiyoti namunalariga asoslangan. U tahlilda asosiy e’tiborini musulmon sharqi islom dunyosidagi muammolarga qaratsada, falsafiy bilimlarni rivojlantirish borasida faqat diniy aqidalarga tayanib qolmagan, degan xulosa chiqarish imkonini beradi.

Biz tadqiq qilayotgan «Latoif ul-G‘iyosiyot» asari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida 2 ta nusxada (inventar raqami: 10873 va 2355) mavjudligi sharqshunos tadqiqotchilar, ilmiy jamoatchiligimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotimiz davomida «Latoif»ning 10873 inventar raqamli qo‘lyozma nusxasidan keng foydalanildi va tarjima qilgan holda bir qancha tahlillar berildi. «Latoif» ning 10873 Toshkent qo‘lyozmasi hijriy 1265-yilda (milodiy 1848) fors tili, nastaliq yozuvida ko‘chirilgan. Ko‘chiruvchi kotibning ismi berilmagan. Qo‘lyozmaning kolofonida kotib bu haqida quyidagicha yozadi:

و الله اعلم بالصواب باتمام رسيد و لاختتام انجا ميدانى ... كاتب از ناظران دعا طلب است

«Tugallanganini esa Alloh yaxshi biladi, men shu yerda tugataman... Kotib o‘quvchilardan duo so‘raguvchidir»²¹. Bundan shu narsa a’yon bo‘ladiki, kotib savob amal uchun ko‘chirgan va ushbu asarni o‘qigan insonlar kotibning haqqiga duo qilib qo‘yishni so‘ragan, ya’ni duo talab qilgan. Qo‘lyozmani bibliografik tadqiq qilish davomida kotibning mahorat bilan ko‘chirganligiga guvoh bo‘lamiz. Qo‘lyozma juda yaxshi saqlangan, kattaligi bo‘yiga 20 sm va eniga 13 sm, umumiy hajmi 120 jilddan iborat. Asarni ko‘chirish davomida asosiy tushunchalarni ajralib turadigan rangda, qizil rangda ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu manbaaning tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak qo‘lyozma nusxaning birinchi sahifasida rangli muhr bosilgan va bu muhr yuqori qismida lotin yozuvlari bilan «Buxara Davlet» yozuvi va pastki qismida ham yozuv bor lekin tushunarsiz holga kelib

²⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2017 йил 23 декабрь. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi>

²¹ Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy. Latoif ul-G‘iyosiyaya 120 b ص لطائف غيائيه.

qolgan, ranglari o'chib ketgan. Muhrning markazida 672 raqami qo'yilgan²². Bu muhr shundan dalolat beradiki, 1934 yili Buxoro Xalq Respublikasi hukumatining qarori bilan Buxoroda saqlanayotgan va Buxoro amirligidan qolgan qo'lyozma va bosma kitoblar ham Sharqshunoslik instituti fondiga keltirilganligi hamda shu qatori biz tatqiq qilayotgan «Latoif ul- g'iyosiyya» qo'lyozma nusxasi ham Buxoro amirligi, keyinchalik esa, Buxoro Xalq Respublikasi hukumati kutubxonasida saqlanganligini bilishimiz mumkin. Asarning nomi «Latoif ul-g'iyosiyot» (غياثيه لطائف), muallifi sifatida esa, «Muhammad ibn Umar Faxriddin ar-Roziy» jumlasini qo'lyozmaning dastlabki sahifasida fors tilida bayon qilingan.

Asarning muqaddima qismida basmaladan so'ng Islom an'analariga muvofiq Alloh Taolaga quyidagicha hamd bilan boshlanadi:

بسم الله الرحمن الرحيم و شكر و سپاس فراوان بعد دستارگان آسمان بریار باران و برگ درختان و یک بیابان و ذره های زمین دا هران خدای را که ایمان کی صفت اوست و جلال و کبریا و حطت و خلا مید و بها ماتیت سفا راوست و...

ya'ni «Yakkayu yagonalik sifati bo'lgan, shukuh va ulug'vorligi oliy xosiyatga ega bo'lgan Xudoga shukur va beaded minnatdorchiliklar bo'lsinkim, osmondagi yulduzlarni, yomg'ir qatralarini, biyobonda daraxtlar barglarini, zamin va osmondagi zarralarni yaratgan Alloh azza va jalla o'z yetukligi va jamoli bilan sifatlar sifatining xosiyatidir. Uning farmonlarining ijrosi u yaratgan mavjudotlarga qo'shilgan bo'lib, ayni zamonda ularning aksida namoyon bo'ladi. Uning faoliyatining ko'rinishi aql ko'zida aks etgan bo'lib, yarqirashini o'qish siddiqlarning eng yaxshi shaffofligida aks etadi...»²³.

Asarning ikkinchi, 2355 inventar raqamli Toshkent nusxasi hijriy 1060-yil (milodiy 1650-yil) yilda Hindistonning Patna shaxrida kotib Usmon ibn Mulla Muhammad Mulla Kamol o'g'li (عثمان بن ملا محمد ولد ملا کمال) tomonidan nastaqil yozuvida ko'chirgan. qo'lyozmaning kolofonida asar haqida quyidagicha ma'lumot beriladi:

باتمام رسيد وباختمام انجاميد هذا الكتاب الموسوم باللطائف الغياثيه من تصنيف الامام فخرالدين الرازي قدس الله تعالى سره على يد الضعيف النجيف عثمان بن ملا محمد ولد ملا کمال بتاريخ هفتم بروز دوشنبه شهر جماد الاول سنه ۱۰۶۰ مقام بلده پتنه صوبه بهار.

«Al-Latoyif al-G'iyosiyya» nomli bu kitob Imom Faxriddin ar-Roziy tomonidan, Alloh taolo uning ruhini muqaddas qilsin, tasnif qilgan. Uni kamtarin va ojiz banda Usmon ibn Mulla Muhammad Mulla Kamol o'g'li qo'li bilan 1060-yil Jumodul-avval oyining 7-dushanba kuni Bihor viloyatining Patna shahrida ko'chirilgan»²⁴.

«Latoif ul-G'iyosiyot» asari haqida uning muqaddima qismida quyidagicha ma'lumot beradi: «Ushbu kitobda ularni jamlab, har faslida ilohiy fayzga ishonim va uni uch maqola tarzida tartibga soldim. Birinchi maqola ilm fazilati haqida, ikkinchi maqola olam yaratuvchisining borligini dalillar vositasida ochish haqida, uchinchi maqola inson ahvolining sifatlari haqida. Rostanam olamni yaratuvchisi eng qadimgi taolo va muqaddas Xudoyi subhana va taolo ushbu kitobni siddiqlik

²² Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy. Latoif ul-G'iyosiyya 120 b. ص لطفات غياثيه. محمد ابن عمر فخر الدين الرازي.

²³ Fahriddin Roziy. Latoif ul-G'iyosiyya 2 b. ص لطفات غياثيه. محمد ابن عمر فخر الدين الرازي.

²⁴ Al-Beruni Intsitute of Oriental studies. Internet manbaa. URL: <http://scam.beruni.uz/scam/items/17610>

va safolikni oshirishning sababi qilsin, hamda ichki ma'nolaridan foydali xulosalar chiqarib, ajoyib tarzda riyokorliklarni kamaytirib, kutilgan umidlarga katta mas'uliyat bilan kirishishni ravo ko'rsin»²⁵.

Tadqiqot natijasida «Latoif ul-G'iyosiyot» asarining yaratilish tarixi va ijtimoiy ehtiyoji, metodologik asoslari muayyan muhit nuqtai nazaridan mavjudligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik. Mutafakkirning ushbu asaridagi umuminsoniy qarashlarni o'rganishda, asarda ilgari surilgan ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-tarbiyaviy, ma'rifiy va boshqa mushohadatalab g'oyalarni falsafa tarixi nuqtai nazardan tahlil qilib, bugungi yosh avlod tarbiyasiga keng miqyosda tatbiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi, **“Faxriddin Roziy ijodida ontologik va gnoseologik masalalar talqini” deb nomlanib**, bu bobda Roziyning borliqning mavjudlik shakllari, materiya, substansiya va aksidensiya, bilish usullari Roziyning Xorazmshohlar ijod mahsuli hisoblangan bir necha asarlar, xususan, “Jami ul-ulum”, “Chahordoh risola”, “Ar-risolat ul-kamoliya” va “G'uriylar intermediyasi” namunasi hisoblangan “Latoif ul-G'iyosiyot” asarlari asosida ontologik, gnoseologik matnlar germenevtik tahlilining falsafiy mohiyati tadqiq etilgan.

Falsafada Faxriddin Roziyni Aristotel, Forobiy va Ibn Sinolarning ma'lum darajadagi izdoshi deb hisoblash mumkin. Ammo u nafaqat munosib davomchi balki, yuqorida ko'rsatilgan faylasuflar ta'limotining sharhlovchisi va taqlidchisi, shuningdek ularning falsafiy, tabiiy-ilmiy merosiga ijodiy va tanqidiy ruhda yondoshgan.

Roziy o'ziga ustoz deb bilgan mutafakkirlarni quyidagicha e'tirof etadi: “Bilimlarning turli sohalarida, shu jumladan, falsafa borasida ko'plab asarlar yozgan Aristotel faylasuflar o'rtasida eng buyugi edi. Forobiy va Ibn Sinodan boshqa hech bir faylasuf uning ishlarini bu qadar chuqur o'rganmagan, ular qadar sharhlay olmagan. Falsafa ihlosmandlari uning ishlari va o'ziga katta hurmat bilan munosabatda bo'lishgan. Men ham uning falsafiy asarlariga juda qiziqqanman va umrimning bir qismini uning falsafiy asarlarini o'rganishga sarfladim. Buning natijasida o'zimning falsafiy ishlarimning bir qismini yoza oldim, shularning jumlasiga “Nihayat al-uqul” (“Ong chegarasi haqida risola”), “Al-Mulaxxas” (“Mantiq bo'yicha kichik kitob haqida risola”), “Sharxi Ishorot va Abu Ali” (“Ibn Sinoning “Ko'rsatma” kitobi asosiy qismlari haqida risola”) kiradi”²⁶.

Roziy ta'limotiga ko'ra, borliq butun mavjudotni anglatuvchi umumiy tushunchadir, “...ong tufayli mavjudodlar zaruriy borliq va ehtimoliy borliqqa bo'linadi. Ikki qismga bo'linuvchi narsa esa mazkur qismlar uchun umumiy hisoblanadi, demakki, borliq barcha mavjudot uchun umumiy (tushuncha) hisoblanadi. Shunday qilib, Roziy, borliqning chindan ham mavjudligiga shubha qilmay, Forobiy va Ibn Sino singari, borliq zaruriy borliq (واجب الوجود) va ehtimoliy-borliq (ممکن الوجود) ga bo'linadi, deb hisoblagan. O'z fikrini asoslash

²⁵ Muhammad ibn Umar Fahriddin Roziy. Latoif ul-G'iyosiyot 3a ص لطائف غيائيه. محمد ابن عمر فخر الدين الرازي.

²⁶ 228 ص. 1363ق. ح. تهران، تهرانی، و مناظرات فخرالدین رازی، شرح، زندگانی و مناظرات فخرالدین رازی، مویل خراوی. Моил Херавий. Шархи хол, зиндаги ва мунозироти Фахриддин Розӣ.

uchun mutafakkir quyidagicha ta'kidlaydi: "Bilgilki, borliq, mavjudod mavjudligiga hech qanday shubha yo'q. Shu bois agar zaruriy borliq mavjud bo'lsa ehtimoly borliq ham mavjuddir. Shunday qilib, ma'lum bo'ldiki, barcha borliq, mavjudot ikkiga bo'linadi – ulardan biri zaruriy-borliq, boshqasi, ehtimoliy-borliqdir." Forobiy, Ibn Sino va Umar Xayyomlar singari Faxriddin Roziy ham zaruriy borliq hamma mavjud narsalarning boshlang'ichi – birinchi sababi ya'ni Allohdir, undan kelib chiquvchi boshqa borliq predmetlari vujudi mumkindir" degan fikrlariga qo'shiladi. Biroq uning zaruriy-borliqqa (Xudo) nisbatan fikri o'zgarmay qolmadi. Keyinchalik Roziy Xudo mavjudligini zaruriy-borliq deb ta'kidlamaydi, ya'ni, qandaydir yaratuvchi borligini shubha ostiga oladi: "Ehtimol, olamni yaratuvchi bor".

Mutafakkirning qarashlariga ko'ra, "substansiya" (جوهر) va "aksidensiya" (عارض) bu – bir xil tushuncha emas, balki, o'zaro yaqin bog'langan ikkita turli xil tushunchalardir. Substansiya narsalarning asosini, mohiyatini, aksidensiya esa – narsalarning ko'rinishi, sifatini tashkil qiladi. Shu bois, Roziyning takidlashicha, ularni bir-biridan ajratish va ularning sifatini bir xil tushuncha deb tan olish mumkin emas. "Zero, substansiya narsalar, tashqi olam asosining mohiyatidir, shunga ko'ra, o'z shakli va tarkibiga ega. Ma'lumki, o'rta asrning bir qator faylasuflari, shu jumladan, islom g'oyalari vakillari ham tabiatdagi sababiy-uzviy aloqalarni inkor etadilar, Aksidensiya esa – narsalarning sifatini inkor etadilar. Demak, substansiya va aksidensiya bir xil tushuncha emas, balki, ikkita turli xil tushunchalardir."

Inson murakkab moddiy substansiya ekanligi to'g'risida Faxriddin Roziy o'zining "Latoif ul-G'iyosiyot" asarida inson falsafasiga doir mukammal fikrlarini, o'z qarashlarini berib o'tgan. U insonni Alloh tomonidan yaratilganligi va eng ulug' – zoti sharif darajasiga ko'tarilganligini ta'kidlaydi va inson sifatleri xususida shunday fikr bildiradi:

آدمی مرکب است از دو جوهر: یکی جبر و یکی روح...

"Inson murakkab mavjudod. U ikki javhardan iborat: ruh va jasad ya'ni tana. Odam tanasi yegulik istemol qilish, harakatlanish vazifasini bajarsa, ruh aqliy narsa, unga ma'naviy xususiyatlar xosdir."²⁷ Inson ham ma'naviy ruhdan ham badandan tuzilganligi uchun uni murakkab deb ataydi. Roziyning asarlarini o'rganish davomida uning mantiq ilmida mohir yekanligini, o'z fikrlarini bayon etishda isbotlash, xulosa qilishda oson bo'lishi uchun dialektika qonunidan mohirona foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi bildirgan fikrida ham ruh va tana qarama – qarshiligi orqali o'z qarashlarini ifodalagan. Ya'ni unda inson murakkab mavjudod ekanligi, uning mohiyati cheksiz ekanligini anglashimiz mumkin. Inson murakkabligiga dalil sifatida uning ikki javhardan ruh va tanadan iborat bo'lganligidadir. Insondan tashqari turli xil mavjudodlar, hayvonlarda esa tana mavjud, ruh mavjud lekin ularning ruhiga aqliy, ma'naviy xususiyat xos emasligini ko'rishimiz mumkin. Inson tanasi ruh va jasaddan iborat va ruh aqliy, ma'naviy xususiyatga egadir.

²⁷ محمد ابن عمر فخر الدین الرازی. لطائف غیائیه. ص. 116a.

Faxriddin Roziy falsafiy dunyoqarashida falsafaning muhim masalalari hisoblangan borliqning mavjudlik shakllariga o'z munosabatini bildirib o'tgan. Uning falsafiy asarlarida harakat, harakatsizlik, makon, zamon, bo'shliq tabiiy hodisalarning ajralmas qismi ekanligi ta'kidlanadi. Dastlab Aristotel, keyinchalik Ibn Sino tomonidan tahlil qilingan fizika tamoyillariga Roziy o'z munosabatini bildirib o'tganligi uning falsafiy uslubining yorqin namunasi hisoblanadi. Mashhur sharqshunos olim Piter Adamson va Fedor Benevichlar o'z tadqiqotlarida Faxriddin Roziyning falsafiy mulohazalaridagi borliqning mavjudlik shakllarini tahlil qilishda kalom an'anasi g'oyalari ham aralashib ketganligini va ba'zan ustunlikka ega bo'lganligini ta'kidlaydi²⁸. Faxriddin Roziy Ibn Sino falsafasini davom ettirish bilan birgalikda ko'plab o'rinlarda o'zining e'tirozlarini bildirib o'tadi. Ibn Sinoning davomiylik, abadiylik g'oyasiga qarshi mo'taziliy va ash'ariy kalom maktablarining atomizm g'oyasini qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa holatlarda esa atomist hisoblangan Abu Bakr ar-Roziyning fikrlarini tasdiqlaydi. Ya'ni makon va zamon jismlar va ularning harakatlarining o'lchovlari va chegaralari emas, balki mustaqil kategoriyalardir deb ta'riflanadigan "Aflotuncha" tushunchani qabul qiladi.

Bilish nazariyasi yoki borliqni anglash masalasi falsafaning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Binobarin, bu savol antik davrdan tortib to hozirgi kungacha barcha faylasuflarni hayajonga solgani va diqqatini tortgani tabiiy.

Shuni ta'kidlash joizki, ilg'or mutafakkirlar real voqelikni anglash va idrok qilish kabi keskin masalalarni o'rtaga tashlagan va uni muvaffaqiyatli hal etishgan. Ishimizning oldingi bo'limlarida aytib o'tilganidek, Roziy innovatsion fikrlaydigan, ilg'or mutafakkir faylasuflar qatoriga kirgan va Ibn Sino mantiqiy maktabining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan. Binobarin, u ham Ibn Sino va boshqa kosmopolit mutafakkirlar singari gnoseologiya, ya'ni tashqi olamni idrok etish, tevarak-atrofdagi olamni bilishda sezgi va ongning o'rni, tafakkuri masalasi bilan birgalikda musulmon mafkurachilarining bu sohadagi ta'limotlariga ham befarq qaray olmasligi tabiiy edi.

Roziy tashqi dunyoning mustaqil mavjudligi va uni anglash mumkinligi haqidagi g'oyani himoya qilib, bilish bir martalik jarayon emas, balki bir necha bosqichlardan iborat degan juda muhim g'oyani bildirdi. Inson bilim oladi, real voqelikning narsa va hodisalarini idrok etadi, haqiqatni bir vaqtning o'zida emas, balki olam hodisalarini izlanuvchanlik bilan o'rganar ekan, asta-sekin anglaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhiti barqarorligini ta'minlashda "Latoif ul-G'iyosiyot" asarining ahamiyati**" deb nomlanib, mutafakkirning "Latoif ul-G'iyosiyot" asaridagi diniy-falsafiy g'oyalari xususan ilm fazilatining umumiy jihatlari, uning dalillari, jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotida ratsional tamoyillarning ahamiyati tahlil qilingan. Unda ta'kidlanishicha, inson ruhiy mavjudligini nazarda tutuvchi e'tiqod va bilish, ma'naviyat va ahloq bugungi zamonaviy jamiyatda inson qiyofasini kafolatlaydi.

²⁸ P. Adamson and B. Fedor. Fakhr al-Din al-Razi, *The Stanford Encyclopedia of Philosophy*, Edward N. Zalta & Uri Nodelman (eds.), URL: <https://plato.stanford.edu/archives/spr2023/entries/al-din-al-razi/>

Faxriddin Roziy yashagan O'rta asrlar sharoitida olam va odam o'zaro munosabatlarining asosan diniy talqini ustuvor bo'lib, bu boradagi muqobil qarashlar qattiq ta'qib etilgan.

Shunga qaramay, mutafakkir islom madaniyati va ilm-fanining zabardast vakili sifatida diniylik va dunyoviylik nisbatiga doir o'zining munosabatini yaqqol ifodalay olgani tahsinga loyiq. Faxriddin Roziyning «Latoif ul-G'iyosiyot» diniylik va dunyoviylik g'oyalari bilan yog'rilgan asar hisoblanadi. Ayniqsa, uning aql va e'tiqod, ruh va tana, din va hikmat masalasiga qaratgan e'tibori muhimdir. Faxriddin Roziy fikricha, ushbu masalalarni tadqiq etishdan ko'zlangan maqsad – «siddiqlik va safolikni oshirishning sababi qilishi, hamda ichki ma'nolaridan foydali xulosalar chiqarib, ajoyib tarzda riyokorliklarni kamaytirib, kutilgan umidlarga katta mas'uliyat bilan kirishishni ravo qilishi»²⁹ hisoblanadi.

Dissertantning fikricha, Faxriddin Roziyning «Latoif ul-G'iyosiyot» asaridagi «Ilm fazilati haqida» maqoloti (مقالة) hamda uni fasllarga (فصل، قسم) bo'lgan holda ham diniy ham dunyoviy dalillar asosida talqin qilingan. Asarda «Ilm fazilati haqida» maqolasi yetti fasldan (فصل) iborat bosqich borligi ta'kidlanadi. Birinchi faslda ilm fazilatining umumiy jihati to'g'risida ma'lumot beriladi va mutafakkir bu haqida quyidagicha ta'kidlaydi:

درین کتابی اہم آوردم و در جمع آن برفی فضل بان اعتماد کردم و انرا بر سہا مرتب کردم اتقال اول در فضیلت علم تا دوم در تقریر دلایل برستی صالح عالم تاسیوم در کیفیت احوال بزان پرشتم آفرید کار قدیم تعالی و تقدیس ایز دسبحانہ و تعالی این کتاب سبد بہ صدق و صفا کند و درون سفید و مستقیم را از آرایش جو دریا کی مدارا دانہ خیر با مسول اکرم مسئول مقالہ اول در قضیہ علم و این مرتبت بہ ہفت فصل امر اول در فضیلت علم علی الاطلاق بنکہ در این فضیلت علم برت ام است بعضی از قرآن و بعضی از توریت و بعفر از انجیل و بعظ از بورد و بعضی از اخبار.

“Bilgilki, ilm fazilatining dalillari uning qismlarida beriladi. Ularning ba'zilar Qur'ondan, ba'zilar Tavrotdan ba'zilar Injildan, ba'zilar Zaburdan, ba'zilar o'tmishdagi yozma xabarlardan va yozilgan asarlardan olingan. Ammo Qur'onda keltirilgan dalillarda ilm fazilati haqida ko'p gapiriladi”³⁰.

Tadqiqotchi o'z dissertatsiyasida «Ilm fazilati haqida» maqolotidagi har biriga bir masala yoritilgan yetti faslni batafsil germenevtik tahlil qilib o'tgan. Ushbu fasllarda ilm fazilatining aqliy va naqliy dalillar keltirib o'tilgan. Roziy o'z mulohazalarida aql va e'tiqod, taqvo va ilm kategoriyalariga ham to'xtalib o'tadi. Chunki ilm fazilati haqida gap ketganda ilm va taqvo tushunchalariga munosabat bildirmaslik katta kamchilik hisoblanadi. Taqvo, e'tiqod doimo ilmga ehtiyoj sezadi. Imsiz taqvo bo'lmaydi. Inson har ikkisiga ham ega bo'lsa, mukammal shaxs bo'ladi. “Agar bizdan so'rasalarki, taqvo ilmdan oldin kelganligidan u ilmdan fozilroq emasmi desalar, biz javob beramizki, ilm bo'lmagan joyda taqvo ham bo'lmaydi. Negaki, olim bo'lmagan odam dunyoni bilmasligidan osmon qayerda ekanligini ham bilmaydi va dunyoni o'zi ham nima ekanligini bilmaydi. Demak, taqvo ilmsiz bo'lishi mumkin emas. Demak, har kishi uchun eng qulay joy shundaki, u ham olim bo'lsa, ham omilkor, hech shubha yo'qki, har kimki ikkisiga

²⁹ محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیاتیہ. ص 3 a

³⁰ محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیاتیہ. ص 3 a

ham ega bo'lsa, yetukroq bo'ladi". Alloma insonlarni doimo ilm talab qilishga chorlaydi. Muqaddas manbalarga asoslanib Ilm bir kun kelib o'z egasining gunohlariga shaf'e bo'lishini ta'kidlaydi. "Shuning uchun doim ilm talabida bo'lib, uni ta'qib qiling. Agar ilm sizni baxt-saodatga erishtirmasa ham, badbaxt ham qilmasligi aniq. Agar ilm sizning maqomingizni ko'tarib qo'ymasa ham, pastga ham, darveshlik darajasiga tushurib ham qo'ymaydi. Agar sizga foyda yetkazmasa ham, ziyon ham yetkazmaydi. Siz agar ilm o'rgansam, unga amal qilmaslikdan qo'rqaman demang. Lekin aytingki, ilm o'rganishdan va unga amal qilishdan umidvorman. Negaki, ilm kishining gunohlariga shaf'e bo'ladi".

Mutafakkir musulmon ahlini mukkasidan ketib toat-ibodat qiladigan muslim va muslimalarni tafakkur qilishga, boshqa ilmlarni ham o'rganishga chaqiradi. Jannatga kirish uchun faqatgina toat qilish emas foydali ilmlarni o'rganish va o'rgangan ilmini o'zgalarga nafi tegadigan maqsadda foydalanish joizligini aytib o'tgan. Bu tog'rida shunday fikr keltiradi: "Rasurulloh alayhissalom marhamat qilib aytadilarki, bir soat tafakkur qilish, yaxshi va xayrli narsalar haqida o'ylash oltmish yillik ibodatdan ko'ra afzaldir"³¹. Ya'ni bir soat fozil narsalar to'g'risida fikr yuritish oltmish yillik ibodatdan ko'ra yaxshiroqdir. Shundan etiboran mutafakkir naqliy dalillarni bayon qilish asosida taqvo va ilm, aql va e'tiqod dialektikasini aqliy dalillar asosida aql, tafakkur qilish, fikr yuritish toat-e'tiqoddan ustun ekanligini isbotlashga harakat qiladi va o'zining uchta aqliy dalillarini taklif etadi. Ulardan birinchisi:

وجه اول آن است که تفکر عقل بنده را به معرفت خداوند می‌رساند و طاعت بنده را بخواب می‌برد و توانیم نفر خود است و معرفت خداوند از نصبه الف فضیله باشد بر تفکر از عبادت فاضل‌تر باشد. تفکر از طاعت بهتر بود.

"Shuni bilgilki aqliy dalil bilan aytilgan so'z yuz ko'rinishidan ko'ra ko'proq narsani mustahkamlaydi. Shu jihatdanki banda aqlining tafakkuri uni Xudo marifatiga yetkazadi. Toat-ibodat bandani savobga yetkazadi, savob o'z navsining nasibasidir. Alloh taoloning marifati nafsning nasibasidan afzalroqdir. Demak fikr yuritish ibodatdan afzalroqdir"³². Bu jihat bugungi globallashib borayotgan dunyomizga ham juda ahamiyatli hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni ilm o'rganishga undaydi. Tushunib – tushunmasdan turli xil yod g'oyalarni o'zlariga bosh asos qilib olayotgan yoshlarimizga juda o'rnakli fikrlar hisoblanadi. Ibodat bilan bir qatorda dunyoviy-zamonaviy ilmlarni ham o'rganish bugungi dunyoning asosiy talabi hisoblanadi.

Mutafakkir o'z o'tmishdoshlari ya'ni yunon faylasuflari va sharq peripatetiklari g'oyalari asosida fikrlaydi va uning falsafiy qarashlarida o'z aksini topganini ko'ramiz. Jumladan mutafakkir ham inson jismini ikkiga bo'ladi, ya'ni ruh va tana, jasadga. Bu o'rinda aql va e'tiqod, tafakkur va toat munosabatida e'tiqod, tafakkur sharafliroq ekanligining ikkinchi dalilini ham keltirib o'tadi. Unda faqatgina tirik insongina fikrlay olishi va unda ruh mavjudligidan ekanligidir. Fikrlash, tafakkur qilish ruhning ishi ekanligi, qanchalik inson ruhi toza, kuchli

³¹ محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیائیه. ص 7 a

³² محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیائیه. ص 6 a

bo'lsa shuncha tiniq, aniq tafakkur qiladi degan fikr olishimiz mumkin. Inson tanasi haqida esa toatni amalga oshirishda muhim ro'l o'ynashi, ya'ni duo qilganda qo'llarimizning, namoz o'qish jarayonida qo'l, oyoq deyarli barcha inson tana a'zolari harakatga kelishini aytadi. Bunda toat-ibodat inson tanasi amali ekanligini bilib olamiz. Va o'z fikrlari oxirida inson tanasidan uning ruhi muhim ekanligi, uning obrosi yuqori ekanligini aytib o'tadi. O'z maqolasida ilm, tafakkur qilish afzalligining ikkinchi aqliy dalilini quyidagicha tavsiflaydi:

وجه دوم آن است که تفکر عمل روح است و طاعت عمل بدن و روح شریفتر از جسد است. تفکر از طاعت بهتر بود.

“Fikrlash ruhning amalidir. Toat-ibodat esa jism (jasad) amalidir. Ruh esa, o'z navbatida jasaddan sharafliroqdir. Shuning uchun ham fikr yuritish ibodatdan yaxshiroqdir”³³.

Aqliy bilishning ustunligi haqidagi sakkizinchi dalilga ko'ra Roziy predmetlarning mohiyatiga e'tibor qaratadi, ya'ni tafakkur narsalarning mohiyatini anglay oladi, hissiy bilimlar esa tashqi ko'rinishi haqida ma'lumot berishiga ishora qiladi. Ko'rish quvvati tashqaridagi narsalarni har birini ko'radi, masalan, insonni. Insonni ko'rganda aslida yuzi, rangi va badanini ko'rmaydi. O'z-o'zidan ma'lumki, aqlan inson alohida olgan yagonalik sifatida yuzi, rangi va jussasidan iborat emas. Demak, ma'lum bo'ladiki, ko'rish quvvati idrokan ashyolarning haqiqatini ko'rishdan ojizdir. Ammo aqliy quvvat ashyolarning ichiga kirib borib, undagi ko'rinmayotgan narsalarni o'rnini qoplaydi va ularning barchasini bir-biridan ajrata oladi. Ularning sifatleri, zotlarini va lozim bo'lgan farqlarini aniqlaydi. «Demak, hissiy quvvat aqliy quvvatga nisbatan xuddi nur bilan zulmat o'rtasida munosabatni eslatadi»³⁴.

Roziy masalaga anchagina ratsionalistik jihatdan yondashgan holda uchinchi aqliy dalil sifatida quyidagicha argument beradi: “Ibodatsiz fikr yuritish najotga sabab bo'ladi. Zeroki, agar biror kofir fikr yuritsa, tavhid dalillarida orifga aylanadi va shu holatda vafot etsa, ittifoqan bo'lsa ham behisht ahllaridan bo'lib qoladi. Ammo agar ming yil ma'rifatsiz amal qilsa ham hargiz o'z yo'lini topa olmaydi. Demak, fikr yuritish toat-ibodatdan beniyozdir, ammo ibodat fikr yuritishga muhtojdir. Demak, fikr yuritish ibodatdan ko'ra, fazilatliroqdir”³⁵.

Yuqoridgi fikrlardan shunday xulosalar kelib chiqadiki, ezgu fikr yuritish, foydali ilm o'rganish insonlarni yaxshilik, ezgulik sari yetaklaydi. Nafaqat fikrlovchiga balki o'zgalarga ham foydasi tegadi. Ilmsiz inson ilm o'rgansa, ezgu fikrlasa donishmand, orifga aylanadi, shu o'rgangan ilmi orqali insonlarga yaxshilik qiladi. Shu jihat ham ezgu amal hisoblanadi va savob amaldir. Oxir-oqibat o'sha inson vafot etsa Jannat ahllidan bo'lishi mumkin deb ta'kidlaydi. Boshqa tarafdin esa ko'r-ko'rona toat qilib, qilgan toatiga shubha qilib qaraydigan, ibodat qilsa ham Xudo taqirlagan amallarni bajarib, nima uchun toat qilayotganini, nima o'qiyotganini anglamasdan toat qilgan insonlar esa o'z yo'lini yo'qotib qo'yishi mumkinligi to'g'risida aytib o'tadi.

³³ محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیائیة. ص 7 b

³⁴ محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیائیة. ص 15 a

³⁵ محمد ابن عمر فخر الدين الرازی. لطائف غیائیة. ص 7 b

Tarixiy davr tendensiyasidagi islomiy bilimlar va zamonaviy qarashlarning dalillaridan kelib chiqadigan umumiy xulosa shuki, mutafakkir Faxriddin Roziyning ilmiy merosini chuqur tadqiq etish, uni mamlakatimizdagi bugungi demokratik islohotlar jarayoniga izchil tatbiq qilish, ma'naviy meros sintezi asosida o'zlashtirilgan bilimlarni insoniyat kamoloti uchun yo'naltirish masalasi tadqiqotchi olim va faylasuflar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Taniqli mutafakkir Faxriddin Roziy siymosida, bugungi kunda biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining tarixiy asoslarida uning aql-idroki, tafakkur tarzi va islom ilmlari haqidagi qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi glaballashuv jarayonida insonlar o'z aql-idrokiga tayangan holda ish tutishlari, ilm o'rganishda faol bo'lishlari, jamiyatda paydo bo'lgan muayyan masalalarni hal qilishda aql bilish ish turishda nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

“Faxriddin Muhammad ar-Roziyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari (“Latoif-ul G'iyosiyot” qo'lyozmasi asosida)” mavzuidagi olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy xulosalarga kelindi.

1. Bugungi kunda Sharq falsafiy tafakkurini, uning o'rganilmagan va ochilmagan noyob ma'naviy merosini o'rganish va tadqiq etish, ajdodlarimiz tomonidan meros sifatida qolgan asarlarni kengroq muhokama qilish har jihatdan dolzarbdir. Sharq falsafasi tarixida yuz bergan ilmlarning purtanakdek otilishi natijasida o'ziga xos falsafiy dunyoqarash shakllandi, olamdagi xatti-harakatlarning mohiyatini tushunish va tushuntirib berish bilan bu davr ilmi rivojida yangidan yangi sahifalar ochildi. Shubhasiz, bu davr musulmon falsafasi rivojida qadimgi yunon falsafasining ta'siri salmoqli o'rin tutadi. Ammo, Islom dinining kechroq yuzaga kelganligi sababli dunyoqarash jihatidan falsafa va falsafiy ilmlar islom dini asosida shu darajaga olib chiqildiki, ularning bu borada yozgan asarlari keyingi davr olimlari uchun ham o'ziga xos yo'lak vazifasini o'tadi.

2. Faxriddin Roziy hayoti va ijodi bilan bevosita bog'liq bo'lgan G'uriy sultonlar hukmronligi davrida shunday siyosiy tendensiya shakllantirildiki, pirovardida, G'uriylar imperiyasini shakllantirishga erishish uchun mazkur jarayonda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar, tabiiy fanlar, ilm-fanga e'tibor masalasi birlamchi omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, G'uriy sulton G'iyosiddin Muhammadning jamiyat barqarorligini ta'minlashda, mamlakatni imperiya darajasiga olib chiqish tamoyili ijtimoiy zarurat ekanligi haqidagi xulosaga kelishiga, Faxriddin Roziyning mintaqalararo yuksak mavqeyi, jo'shqin nutqi, ilg'or g'oyalari ma'lum ma'noda huquqiy-metodologik manba vazifasini bajargan.

3. Mutafakkir asarlarida ilmga intilish, ratsional tafakkurning ilmiy bayoni, axloqiy kamolotga erishuv kabi falsafiy g'oyalar umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilganligi ta'kidlanadi.

4. G'uriylar davlatini rivojlantirish, uni imperiyaga aylantirish yo'lida eng katta g'ov sifatidagi omil Karromiylikka qarshi mukammal davvo sifatida Faxriddin Roziyning jalb qilinishi va bu faoliyat davomida qizg'in baxs-munozaralar, oddiy xalq orasidagi og'zaki ma'ruzalar hamda eng muhimi avom tili hisoblangan fors tilida «Latoif ul-G'iyosiyot» yozilishiga ijtimoiy zaruriyatni yuzaga keltirdi.

5. Faxriddin Roziyning ilohiyot mavzusidagi qarashlari demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining ma'rifiy tuzilishi uchun muhim nazariy manba vazifasini bajaradi. Xususan, mazkur tadqiqotda mutafakkirning ma'rifatli dunyo tamadduniga qo'shgan hissasi va ijtimoiy ahamiyati yuqori ekanligi dalillangan.

6. Mutafakkirning ontologik va gnoseologik qarashlari Xorazmshohlar homiyligi ostida yozilgan asarlarda o'z aksini topadi. Roziy bu davrda o'zining tabiiy ilmlarga doir qarashlarini, xususan borliq, substansiya va aksidensiya, borliqning mavjudlik shakllari, bilish shakllari haqida ilg'or qarashlarini berib o'tadi. U borliq muammosi talqinini ilmiy izohlab, tabiiy fanlar sohasida erishilgan natijalarni umumlashtirgan holda ratsional jihatdan asoslab bergan.

7. U tashqi dunyoning ob'ektiv mavjudligini va uning bilimi sezgi a'zolari va ong yordamida, to'rt oddiy unsurning birlashuvi natijasida noorganik va organik tabiatning hosil bo'lishi va rivojlanishi, harakat, makon, zamon va ularning uzluksiz o'zaro aloqasi obyektiv mavjudligini tan olgan. Buning barchasi, shubhasiz, uning ta'limotidagi ratsional markazni tashkil etadi. Va u ulkan ijobiy rol o'ynadi, zero, bu – islomning asosiy aqidalariga zid bo'lsada. Shuning uchun ham Faxriddin Roziyni Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining ilg'or falsafiy fikrlarini rivojlantirishda katta rol o'ynagan o'rta asrlar falsafiy fikrlar rivojining erkin fikrlovchi va ilg'or faylasuflardan, shuningdek, O'rta Osiyo va musulmon Sharqining bir qator keyingi faylasuflarning dunyoqarashiga ulkan ijobiy ta'sir ko'rsatganlardan biri deb bimalol hisoblash mumkin.

8. Uning ilm fazilatini targ'ib qilishdan asl maqsadi din, e'tiqod bilan falsafa, aql-tafakkurning farqini ko'rsatish bilan birga ularning xulosalari, maqsadlari birligini e'tirof etish bo'lgan. Din ham falsafa ham ayni bir haqiqatga ikki xil usulda (metodda) borishini ta'kidlaydi. Bunda u mutloq haqiqat, ya'ni Oliy Haqiqat Yagona Alloh ekanligini e'tirof etib, bu Haqiqatni anglashga eltuvchi din ham, falsafa ham haqiqat ekanligini nazarda tutadi.

9. Mazkur tadqiqotda jamiyatning barcha qatlam vakillarida islom dini ibodatdan iborat ijtimoiy-diniy dogmatika emasligini, balki ilm-fan, madaniyat, ma'rifat, qolaversa, kalom falsafasi kabi kreativ g'oyalarni o'zida jamlagan ijtimoiy voqelik ekanligi dalillangan.

10. «Latoif ul-G'iyosiyot» asarida insonlarni intellektual salohiyatiga ko'ra farqlab, bunda ularning tushunish qobiliyatlarini inobatga oladi va ilm-ma'rifatni insonlarning darajasini belgilashdagi mezoni sifati talqin etadi. Inson murakkab maxluqot ekanligini tana va ruhdan iborat ekanligi bilan izohlaydi. Shu asosda ilm-u ma'rifat ruhning amali ekanligi sharaflanadi.

11. Bugungi globallashuv sharoitida Faxriddin Roziyning taqvo va ilm, e'tiqod va aql mutanosibliги borasidagi qarashlari dolzarb bo'lib, mamlakatimizda olib borilayotgan diniylik va dunyoviylik uyg'unligining nazariy, konseptual asosi

bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, noratsional tarzda tashkil etilgan yangi-yangi dinlarga, diniy ekstrimizm, diniy fundamentalizm kabi mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet shakllantirishda diniy ma'rifat va ilm-fanning o'zaro aloqadorligiga tayanish zaruriyatini taqozo qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/30.12.2019. F.01.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

УМАРЖОНОВ СОХИБЖОН СОЙИБЖОН УГЛИ

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАХРИДДИНА
МУХАММАДА АР-РАЗИ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ
«ЛАТОИФ УЛ-ГИЯСИЯТ»)**

09.00.03 – История философии

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ

Ташкент-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2021.3.PhD/Fal630.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) и размещен на веб-странице Научного совета (www.sf-ik.uz) и на Информационном образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Саифназаров Исмаил Саифназарович**
доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты: **Холмунинов Джафар Мумамадиевич**
доктор философских наук, доцент

Рахмонов Суннатилло Мавлонович
доктор философских наук, доцент

Ведущая организация: **Ташкентский государственный университет востоковедения**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2025 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.F.01.05 при Национальном университете Узбекистана по адресу 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Здание Дворца культуры Союза молодежи Национального университета Узбекистана, __ этаж, актовый зал. Тел.: (99871) 227-12-24; факс: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован под номером ____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, дом 4. Тел.: (99871) 236-46-55; факс: (99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.

(реестр протокола рассылки №__ от «__» _____ 2025 года).

У.Г.Тилавов

Заместитель председателя
Научного совета по присуждению
ученых степеней, доктор
философских наук, профессор

Г.М. Шадиметова

Учёный секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор философии (PhD), доцент

У.Г.Тилавов

Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор философских наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В последние годы в мире резко изменилась тенденция глобализации, при этом возрастают угрозы национальным ментальным особенностям народов и их локальных цивилизаций, реализующих идею взаимозависимости веры и знаний, воплощающую в себе принципы Необходимость межэтнической солидарности, конструктивного сотрудничества и межрелигиозной толерантности становится с каждым днем все более актуальной. В устранении опасностей, возникающих в мире, важную роль в устранении этой проблемы играет глубокое чувство ответственности каждого человека перед всем человечеством и достижение баланса религиозных ценностей, интеллекта и знаний. Поэтому усилия по достижению прогресса путем объединения современных знаний с наукой и просвещением в трудах мыслителей сегодня признаются объективной необходимостью.

В развитии мировой философской мысли духовное наследие восточных мыслителей, в частности, религиозно-философские взгляды Фахриддина Рази, научно и теоретически изучаются в научно-исследовательских центрах и ведущих университетах таких стран, как Иран, Таджикистан, Пакистан, Турция, Германия, Великобритания и США. Большое значение в обеспечении устойчивого развития общества имеют взгляды мыслителя на стремление к познанию, прославление разума, понимание мира, соотношение разума и веры, прогрессивные идеи о нравственной зрелости. В этом отношении социально-философские взгляды мыслителя Фахриддина Рази становятся необходимым объектом исследования современной науки в борьбе с идеологическими угрозами, возникающими в духовной жизни человечества.

Как и во всех сферах общественной жизни нашей страны, важной задачей стало изучение духовного наследия мыслителей и продвижение их прогрессивных идей в жизнь общества, основанных на новом мировоззрении. В частности, международная научно-практическая конференция, состоявшаяся 17-18 октября 2024 года в Международном научно-исследовательском центре имени Имама Термизи с участием более 50 известных учёных из таких стран, как Турция, Катар, Египет, ОАЭ, Индия, Кыргызстан. было практическим признанием нашей работы. В частности, большое значение в повышении образованности и нравственного облика молодого поколения имеет «Неоценимый вклад многих ярких представителей эпохи Восточного Возрождения Центральной Азии в ислам и мировую цивилизацию»³⁶. Поэтому необходимо осветить содержание произведений Фахриддина Рази с научной точки зрения.

ПФ-5416 от 16 апреля 2018 года Президента Республики Узбекистан «О мерах по коренному совершенствованию деятельности религиозно-

³⁶ Мирзиёев Ш.М. Халкимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. –Б. 253.

просветительской сферы», ПФ-60 от 28 января 2022 года «На 2022-2026 годы указы о Стратегия развития Нового Узбекистана от 27 марта 2017 года № PQ-2855 «О мерах по созданию Международного научно-исследовательского центра имама Бухари при Кабинете Министров Республики Узбекистан», № PQ-2995 от 24 мая 2017 года «Сохранение, исследование и пропаганда древних письменных источников по меры по дальнейшему совершенствованию информационной системы», PQ-3080 от 23 июня 2017 года «Узбекистан О мерах по созданию Центра исламской культуры в Узбекистане при Кабинете Министров Республики Узбекистан» от 16 апреля 2020 года № PQ-4680 «О мерах по коренному совершенствованию системы подготовки кадров в области востоковедения» и повышения научного потенциала», PQ-126 от 10 февраля 2022 года «Совершенствовать систему сохранения и исследования древних письменных источников». Настоящее диссертационное исследование служит в определенной степени реализации задач, определенных в решениях о дополнительных мерах и других нормативных правовых документах по теме.

Соответствие исследований приоритетам развития науки и технологий республики. Данное исследование является приоритетным направлением развития науки и техники Республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократическое государство» действовало внутри.

Уровень изученности проблемы. Исследования, посвященные изучению концептуальных основ социального, религиозно-философского мировоззрения Фахриддина Рази, проводились, прежде всего, на основе его произведений, исторических документов того времени, воспоминаний его товарищей, учеников и оппонентов, а также научных исследований, связанных с тематикой тема.

Литературу по теме исследования можно разделить на 5 групп.

Первая группа является важным источником рукописей и литографий Фахриддина Рази на арабском и персидском языках, хранящихся в рукописном фонде Института востоковедения имени Абу Райхана Беруни Республики Узбекистан³⁷. В этих произведениях отражено мировоззрение Фахриддина Рази, его философские, теологические, общественно-политические, логические и нравственные взгляды.

Во вторую группу входят события, зафиксированные историками. Исследования показывают, что истоками жизни, научной деятельности, путешествий, а также научного и общественного статуса Фахриддина Рази в период покровительства Гур-султанов являются главным образом Ибн аль-

³⁷ Muhammad ibn Umar Fahriddin ar-Roziy. Latoif ul-G'iyosiyya. O'zFA Sharqshunoslik instituti, Inv:10873); 490 ص. الرسالة الكاملة في (Jame ul-ulum); طشقند 1331 هجرية. -215 ص. چاخوردخ ريسولا. تهران، 1340 هجرى قمرى. - 185 صفحه (Ar-Risolat ul-kamoliya); طهران 1335 هجرية. -215 ص (Chahordoh risola).

Асир, Ибн Халликан, Джужони, Ибн аль-Кифти, Таджиддин ибн аль-Сай, Камолиддин ибн аль-Шаар, Ибн Аби Усайбия, Якут аль-Хамави, Мухаммад Мирханд, Э.Алташ. Информация представлена в работах таких историков, как Ф. Гриффель³⁸.

Литературу, вошедшую в третью группу, можно классифицировать в следующем порядке: Ф. Гриффель, М. Сагир Хасан Масуми, среди известных зарубежных учёных формирование мировоззрения Фахриддина Рази³⁹, А. Шихаде, М. Рапопорта, Р. Висновского, Дж. Ламер, Д. Гутас, А. Ахмед, комментарии Ван Лита к произведению Ибн Сины «Намеки и выговоры» Рази, комментаторские традиции, стиль интерпретации⁴⁰, Тарик Джаффер, А. Шихаде, Б. Ибрагим, Ячин Джейлан, Мехмед Эмин Юрт, Вейсел Кая Фахриддин Рази, комментарий к Корану⁴¹, наука о словах, теория познания Мустафы Бозкурта⁴², о трудах Моила Херави, Э. Альташ, Ф. Гриффель⁴³,

³⁸ 1851-1876 (شمس الدين ابن خلكان. الكامل في التاريخ. 14 مجلد. - ليدن: بريول، 1968 منهاج الدين الجوزجاني. طبقات. (Ibn Khallikan. Wafayat al-ayan). 8 مجلدات. بيروت: دار صادر، 1963 (Minhojiddin Juzjoni. Tabaqat-i Nasiri). - Leipzig: Dieterich'sche Verlagsbuchhandlung, 1903. - 518. علي بن يوسف بن القفطي. تاريخ الحكماء. 2 مجلدات. - كابول: أنجومان تاريخي أفغانستان، 1963 (Ibn al-Qiftiy. Tarix ul-hukama); 1934 (Tajiddin Ibn al-Sai. Al-Jami al-mukhtasar). 9 مجلدات. - بغداد: المطبعة السريانية الكاثوليكية، 1934 (Tajiddin Ibn al-Sai. Al-Jami al-mukhtasar); 2005 (Kamoliddin Ibn al-Sha'ar. Kamoliddin Ibn al-Sha'ar. Qala'id al-juman). 9 مجلدات. - بيروت: دار الكتب العلمية، 2005 (Ibn al-Qasim Ibn Abi Usaybia. Uyun al-anba fi tabaqat al-atibba. In A Literary History of Medicine, eds. E. Savage-Smith et al. vol. 5. -Leiden: Brill, 2020.؛ 1993 (Yaqut al-Hamawi. Mu'jam al-udaba); 1994 (Muhammad Mirhond. Rawdat al-safo); Eşref Altaş. Fahreddin er-Razi'nin Hayati, Hämileri: İlmî ve Siyasî İlişkileri. -Istanbul: İSAM Yayınları, 2013. -S. 41- 90.; Griffel F. On Fakhr al-Din al-Razi's Life and the Patronage He Received. *Journal of Islamic Studies* 18, 2007. - p. 313- 344.

³⁹ Griffel F. The Formation of Post-Classical philosophy in Islam. -New York: Oxford University Press, 2021. -651 p.; Saghir Hasan Masumi. Imam Razi's Ilm al-akhlaq. -New Delhi: Kitab Bhavat, 1992. - 333 p.

⁴⁰ Shihadeh A. Fakhr al-Din al-Razi's Response to Sharaf al-Din al-Mas'udi's Critical Commentary on Avicenna's Isharat // *The Muslim world* 104, 2014. - 1-60 p.; Al-Razi's (d. 1210) Commentary on Avicenna's Pointers: The Confluence of Exegesis and Aporetics. -New York: Oxford University Press, 2016. - 296-326 p.; Rapoport A.M. The Life and Afterlife of the Rational Soul: Chapters VIII-X of Ibn Sina's Pointers and Reminders and Their Commentaries: Doctor of philosophy. ...diss. - Yale University, 2018. -500 p.; Wisnovsky R. Avicennism and Exegetical Practice in the Early Commentaries on the Isharat // *Oriens* 41(3-4), 2013. - 349-378 p.; Avicenna's Islamic Reception. -Cambridge: Cambridge University Press, 2013. - 190-214 p.; Lameer J. Towards a New Edition of Avicenna's Kitab al-isharat wa-l-tanbihat // *Journal of Islamic Manuscripts* 4(2), 2013. - 199-248.; Gutas D. Avicenna and the Aristotelian Tradition: Introduction to Reading Avicenna's Philosophical Works. Second, Revised, and Enlarged Edition, Including an Inventory of Avicenna's Authentic Works. -Boston: Brill, 2014.-617 p.; Ahmed A.Q. Post-Classical Philosophical Commentaries/Glosses: Innovation in the Margins // *Oriens* 41(3-4), 2013. -317-348 p.; Lit L. W. C. (Eric). Commentary and Commentary Tradition // *MIDEO* 32, 2017. - 3-26 p.

